

MILLIY BOYLIK UNING TARKIBI VA KO'PAYTIRISH OMILLARI**N.Shakirova****Toshkent moliya instituti "Statistika va ekonometrika"****kafedrası dotsenti****Voseeva Sabina****Toshkent Moliya Instituti 2-bosqich talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.10401236>**

Milliy boylik insoniyat jamiyati taraqqiyoti davomida ajdodlar tomonidan yaratilgan va avlodlar tomonidan jamg'arilgan moddiy, intellektual hamda foydalanishga jalb qilingan tabiiy boyliklardan iboratdir. Odamlar tovar va xizmat turlaridan foydalanishni xohlashlari sir emas. Ammo bu tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish uchun tabiiy resurslardan foydalanishni taqozo qiladi. Quyosh energiyasi, o'rmonlar va ba'zi dengiz jonivorlari singari tabiiy resurslar tiklanadigan resurslar hisoblanib, ulardan istagancha foydalanish mumkin. Neft, temir rudasi, va ko'mir kabi boshqa resurslar o'zgarmas taklif shaklida bo'lib (ya'ni narxning oshib borishi bilan taklif oshib bormaydigan holatdir), ulardan bir marotabagina foydalanish mumkin. Milliy boylikning bir qismini inson mehnatining natijasi hisoblasak, boshqa qismi tabiat boyliklaridan iborat bo'ladi. Shunday ekan milliy boylik keng ma'noda o'z ichiga nafaqat moddiy va nomoddiy ne'matlar, yaratilgan san'at asarlari, intellektual salohiyatni balki barcha tabiat resurslari va boyliklari hamda takror ishlab chiqarishning tabiiy iqlim sharoitlarini ham oladi. Milliy boylikning bu barcha tarkibiy qismlarini miqdoran, qiymat o'lchovlarida hisoblab chiqish bir qator ob'ektiv sabablariga ko'ra ancha qiyin, jumladan uning tabiat in'omlaridan iborat qismi inson mehnatining natijasi hisoblanmaydi va qiymat o'lchovlariga ega emas. Aytilganlardan kelib chiqib, milliy boylikni shartli ravishda quyidagi uchta yirik tarkibiy qismlarga ajratish mumkin:

- tabiiy boylik;
- moddiy-buyumlashgan boylik;
- intellektual boylik.
- ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish sohalaridagi asosiy kapitallari;
- ijtimoiy istemol sohalaridagi asosiy kapital;
- aylanma kapital;
- tugallanmagan ishlab chiqarishning moddiy buyumlashgan qismi;
- moddiy zaxiralar;
- aholining uy, tarmoqqa va yordamchi xo'jaligidagi mol-mulk;
- intellektual boylik;
- tarixiy obidalar;
- arxitektura yodgorliklari;
- noyob adabiyot va sanat asarlari.

Milliy boylik birinchi marta ingliz iqtisodchisi U. Petti (1623—1687) tomonidan 1664-yilda hisoblangan edi, Fransiyada Milliy boylikni birinchi marta ba-holash 1789 yilda, AQShda 1805-yilda, Rossiyada 1864-yilda amalga oshirilgan edi. U. Petti "mehnat — boylikning otasi, yer — uning onasi", — degan va umumiy boylikni ishlab chikarilgan mahsulotlardan iborat, deb tushungan. Mamlakatning sof aktivlari – milliy boyligi mamlakatning mulkiy holati ko'rsatkichi zaxira ko'rsatkichlari turkumiga kiradi. U mahsulot, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy daromadi ko'rsatkichlari (bular "oqim" ko'rsatkichlari) dan farq qiladi. Zaxira

ko'payishi (kamayishi) hajmini va unga ta'sir etgan omillarni quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$A1=A0+\Delta iq+\Delta bs+\Delta r$ bu yerda:

$A0, A1$ –yil boshi va oxiridagi aktivlarning qiymati;

Δiq - iqtisodiy harakatlar (ishlab chiqarish, sotish –sotib olish, in'om etish) natijasida aktivlar qiymatining o'zgarishi;

Δbs - aktivlar qiymatini iqtisodiy harakatlarga bog'liq bo'lmagan boshqa faoliyatlar tufayli o'zgarishi (foydali qazilmalarning ochilishi, tabiiy ofatlar va boshqalar natijasida);

ΔR – aktivlarning nominal qiymatini inflyatsiya (deflyatsiya) natijasida o'zgarishi.

Xulosa: Biz barchamizga ma'lumki, o'tmishda O'zbekiston iqtisodiyoti sobiq sovet ittifoqi iqtisodiyotining tarkibiy qismi hisoblanib, mustaqil milliy iqtisodiyot deb bo'lmas edi. Bizga bir yoqlama rivojlangan paxta yakka hokimligi, xom-ashyo ishlab chiqarishga va boy mineral xom-ashyo resurslaridan nazoratsiz, ayovsiz foydalanish asosiga qurilgan, yonilg'i, g'alla va boshqa ko'pgina ishlab chiqarish resurslari hamda iste'mol tovarlarining ta'minlanishi bo'yicha markazga qaram bo'lgan iqtisodiyot meros bo'lib qolgan edi. Mamlakatimiz prezidenti I.A. Karimov qisqa qilib aytganlaridek, — O'zbekiston bir yoqlama iqtisodiyotga - markazga butunlay qaram, izdan chiqqan iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakat edi.¹

References:

1. Shodmonov SH.SH,G'ofurov.U.V Iqtisodiy nazariya. Ma'ruzalar matni.- T:"Fan va texnologiya" nashr.2018
2. Karimov I.A Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish-eng muhim vazifamiz .T:"O'zbekiston"
3. www.stat.uz –O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
4. <http://www.cisstat.com> –MDHning Davlatlararo statistika qo'mitasi rasmiy sayti

¹ Karimov I.A Iqtisodiyotni erkinlashtirish va islohotlarni chuqurlashtirish-eng muhim vazifamiz T:"O'zbekiston"